

DUNYO AXBORIY MANZARASIDA “COVID-19” URUSH TAHLILI

Zulfizar Mamadaliyeva

Mustaqil izlanuvchi

Jahon maydonida ortda qolgan “COVID-19” muhim iz qoldirdi. Negaki, hamma “Uyda, qoling” shiori ostida ushbu virusdan himoyalananayotgan, karantin qoidalari butun dunyoda qattiq kuchaytirilgan davrlar edi. Jahon bo'yicha minglab insonlar oddiy bir zarradan jon taslim qilayotgan, bemorlar kasalxonalarga sig'magan, o'liklarga joy topilmayotgan dahshatli yil sifatida tarixda qoldi. “COVID-19” nomli virus qayerda paydo bo'ldi, katta-kichik barchaga ma'lum.

Ilk marotaba 2019-yilning dekabrda [Xitoyning Uxan](#) shahrida qayd etilgan kasallik 2020-yilning 11-martida “[Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti](#)” tomonidan pandemiya deb belgilandi¹⁸. Xitoy, [Yevropa](#), [Eron](#), [Janubiy Koreya](#) va [AQShda](#) pandemiya o'choqlari yuzaga keldi. Kasallik bemorda [pnevmoniya](#) hamda [o'tkir nafas olish distress-sindromi](#) keltirib chiqarishi mumkin. Kasallikni boshqarish simptomlarni davolash hamda yordam terapiyasidan iborat. Kasallik tarqalishi oldini olish uchun qo'llarni yuvish, yo'talganda og'izni to'sish, boshqalardan (ayniqsa, o'zini yaxshi his qilmayotganlardan) uzoqroq masofada bo'lish tavsiya qilinishi shartligi belgilangan axborotlar tarqashga ulgurgan edi.

Virusni yuqtirganini taxmin qilayotgan shaxslarga 14 kun davomida o'zlarini izolyatsiya qilish tavsiya qilinishi, kasallik tarqalishi oldini olish maqsadida sayohat qilishni cheklash, [karantin](#), komendantlik soati, tadbirlarni keyinga qoldirish va bekor qilish hamda muassasalarni yopish kabi choralar ko'rilishi kerakligi, virusdan himoyalaniish uchun esa hattoki qarindosh-urug'lar bilan munosabat qilmaslik haqidagi axborotlar butun dunyoni egallab bo'lgan edi. Xususan, virus tarqala boshlagan [Xubey](#) provinsiyasi karantinga olinadi. Shundan so'ng [Italiya](#), [Ispaniya](#), [Fransiya](#), [Chexiya](#) va [Germaniyada](#) mamlakat bo'ylab karantin joriy qilinadi. Xitoy va Janubiy Koreyada komendantlik soati joriy qilinishi, turli mamlakatlarda chegaralar yoppasiga yopilishi yoki sayyohlarga qarshi cheklovlar joriy qilinishi, aeroport va poyezd stansiyalarida nazorat choralari yo'lga qo'yilishi virus keng tarqalayotgan hududlarda sayohat qilishga qarshi tavsiyalar e'lon qilindi¹⁹. Pandemiya global miqyosda qator ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi, sport va madaniy tadbirlar keyinga qoldirilishi yoki bekor qilinishiga sababchi bo'ldi, dori-

¹⁸<https://www.wikipedia.org//COVID-19//?83rjfelg>

¹⁹ COVID-19 pandemiyasi. <https://uz.wikipedia.org>.

darmon, elektronika mollari hamda oziq-ovqat mahsulotlari yetishmovchiligi yuzaga kelishi haqida xavotirlarga sabab bo'ldi. Shuningdek, Internetda virus va pandemiya haqida noto'g'ri ma'lumotlar hamda fitna nazariyalari urchidi, turli mamlakatlarda [ksenofobiya](#) va irqchilik holatlari kuzatildi, vahimaga tushgan xaridorlar oziq-ovqatdan tortib xo'jalik mollarigacha ko'p miqdorda sotib olina boshlandi.

E'tibor qaratadigan bo'lsak, jahonda virusga qarshi kurashish bilan bir qatorda gegemon davlatlar axborot jangini boshlab yubordi. Jahon OAV da pandemiya qarshi kurashishda minglab da'volar o'ylab topilganligi haqida uydurma va yolg'on axborotlar keng tarqaldi. Karona virusi qaysi davlat tomonidan o'ylab topilgan virusli jang degan, savol tug'ilishi tabiiy. Ayrimlar buni AQSHning Xitoyga nisbatan virusli urushi deb qarashsa, yana ayrimlar Xitoy tomonidan demografik odamlar sonini qisqartirishga qaratilgan strategiya sifatida qarashadi. Dunyo davlatlariga tarqagan mazkur virus ularni iqtisodiy va siyosiy jihatdan ham yemira boshladi. Mazkur hodisa bir davlatni ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan yo'q qilishga qaratilgan bo'lsada, bu omil deyarli yer o'qini teskari aylanishiga olib keldi.

Korona virusga qarshi jangdan so'ng, dunyo hamjamiyatida davlatlar o'rtasida vaksinalar jangi va ularni OAVlarda yoritilish boshlandi. Masalan, AQSH, Rossiya o'rtasidagi vaksinalar jangi. Britaniya OAVlari Rossiyaning insoniyatga qarshi navbatdagi diversiyasini fosh etganligi haqida ma'lumotlar tarqagani rost. Bu xabar tumanli albionda bir necha kun davomida asosiy yangilik maqomini ushlab turdi. Britaniyadagi holatga nazar soladigan bo'lsak: mamlakatda pandemiya bilan bog'liq holat o'ta abgor, hukumat qo'llayotgan yangi karantin choralariga qarshi butun boshli mintaqalar bosh ko'tarmoqda, Yevropa ittifoqi bilan Brexit xususidagi muzokaralar boshi berk ko'chaga kirib qolgan va bu yaqin istiqbolda iqtisodiy kollapsni yuzaga keltirishi mumkin. Mana shunday bir sharoitda britan nashrlari o'zlarining birinchi sahifalarida: "Telba Russkies vaktsina bizni shimpanzega aylantiradi, deya bong urishmoqda", deb yozib chiqishdi²⁰. ***Nashrlarning deyarli barchasi kulgili kollajlar e'lon qilgan bo'lib, ularda Britaniya bosh vaziri Boris Jonson surati yetimga aylantirilgan va suratga "Men qor odam vaktsinamni yaxshi ko'raman", degan izoh berilgan edi.***

Bundan ko'rinadiki, virus bu o'sha davrning zamonaviy bir quroli edi. Uning tarqalishidan tortib, uni ta'sirini yo'qotishga qaratilgan vaksinalar barchasi moddiy manfaatlar to'qnashuvidagi vosita edi xolos. Aslida bularning barchasi gegemon davlatlar o'rtasidagi kim o'zarga boshlangan musobaqa edi. Virus va unga qarshi ishlab chiqarilgan vaksinalar hamda ularning dunyo axborot markazidagi reklamasi ochiq maydondagi jang edi. Aslida esa sahna ortida Xitoy, Amerika, Rossiya va Yeropaning

²⁰ <https://sputniknews-uz.com>. Vaktsina-va-maymunlar:Rossiya-feyki-haqida-britaniya-feyki.

buyuk davlatlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi va dunyoni o'z qo'liga olish maydonda bosh bo'lish rejasi edi, xolos. Bundan ko'rinadiki, har bir davlat virusdan himoyalani borsida qurollanish bilan bir qatorda, unga qarshi har qanday usul sinovdan o'tkazib bordi. Virusli vaksinaga qarshi kurashish o'rniga jahon axborot makonida o'zining vaksinalarini ochiqchasiga reklama qilayotgan davlatlar maydoni kengayib bordi. Unda qurbon bo'layotgan insonlar soni mutlaqo ahamiyatsiz bo'lib qolgan. Vaksinalarni turkumiva sifati emas, balki bo'lar-bo'lmas axborotlarning tarqalishi odamlarni qiziqirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.wikipedia.org//COVID-19//?83rjfelg>
2. COVID-19 pandemiyasi.<https://uz.wikipedia.org>
3. <https://sputniknews-uz.com>. Vaksina-va-maymunlar:Rossiya-feyki-haqida-britaniya-feyki.

